**SOME QUANTITATIVE INDICATORS OF RICE VARIETIES****Madina Ne'matova***Andijan State University**Andijan, Uzbekistan**E-mail: Madinaxon0102@gmail.com***Ilkham Kurbanbayev***Institute of Genetics and Experimental Biology of Plants, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** variety, rice grain, quantity of grains, grain weight, yield.**Received:** 04.11.24**Accepted:** 06.11.24**Published:** 08.11.24**Abstract:** In this article, in rice cultivars such as Tantana, Iskandar, Tarona, Lazer, Independence, Independence cluster, UzRos-713, Devzira (Kora kiltiriy), the length of the furrow, the number of grains in the furrow (in which the number of total, empty and full grains were also calculated separately), the results of the analysis of grain weight and productivity indicators are presented and compared with the results of research conducted by scientists in this field.**SHOLI NAVLARINING AYRIM MIQDORIY KO'RSATKICHLARI****Madina Ne'matova***Andijon davlat universiteti**Andijon, O'zbekiston**E-mail: Madinaxon0102@gmail.com***Ilxam Kurbanbayev***O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institute**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** nav, sholi rovagi, don soni, don og'irligi, xosildorlik.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sholi o'simligining Tantana, Iskandar, Tarona, Lazer, Mustaqillik, Mustaqillik klaster, UzRos-713, Devzira(Qora qiltiriy) kabi navlarida rovak uzunligi, rovakdagi don soni(bunda umumiy, puch va to'la donlar soni ham alohida

hisoblangan), don og'irligi va hosildorlik ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil natijalari keltirilgan hamda shu soha olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari bilan solishtirilgan..

НЕКОТОРЫЕ КОЛИЧЕСТВЕННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ СОРТОВ РИСА

Мадина Нематова

Андижанский государственный университет

Андижан, Узбекистан

E-mail: Madinakho0102@gmail.com

Ильхам Курбанбаев

Институт генетики и экспериментальной биологии растений Федеративной Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: сорт, зерно риса, количество зерен, масса зерна, урожайность.


Аннотация: В данной статье у таких сортов риса, как Тантана, Искандар, Тарона, Лазер, Мустақиллик кластер, Мустақиллик, УзРос-713, Девзира (Қора килитирик), длина бороздки, количество зерен в бороздке (в которых число общего, пустого и полного зерна также подсчитывались отдельно)) представлены результаты анализа массы зерна и показателей продуктивности и сопоставлены с результатами исследований, проведенных учеными в данной статье поле.

Bugungi kunda dunyoda sholichilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar natijasida, sholi yetishtirishda oldingi o'rinlarda turadigan davlatlar Xitoy, Hindiston, Vetnam, Indoneziya, Yaponiya va Koreyalik olimlar tomonidan sholi navlarida hosildorlikni oshirish, don sifatini yaxshilash, sholi zararkunandalari va ularga qarshi kurashning istiqbolli usullarini yaratish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yurtimizda agrar sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalarini joriy etilishi, paxta maydonlarni qisqartirilib, asosiy va takroriy ekin sifatida sholi yetishtirish hamda har bir viloyatda sholi urug'chiligini yo'lga qo'yish, ekin maydonlarini kengaytirish va aholini ushbu mahsulot bilan uzluksiz ta'minlash borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi "2018-yilda qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish chora-tadbirlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning prognoz hajmlari to'g'risida" gi PQ-3281-sonli qarori bilan sholi ekinini 2018-yildan boshlab davlat buyurtmasiga kiritildi. Unga ko'ra 2018-yilda asosiy ekin sifatida 104,2 ming, takroriy ekin sifatida 57,9 ming, jami 162,1 ming gektar maydonda sholi ekinini ekish va hosilini davlat rejasiga

asosan topshirish rejalashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27-oktabrdagi "Davlat ehtiyojlari uchun sholi harid qilishni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 876-sonli qarori asosida bir qancha dastur va rejalar ishlab chiqarilib, qishloq xo'jaligining ushbu tarmog'i bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi PQ-4973 sonli "Sholi yetishtirishning yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarorining 5-ilovasida "2021-yilda jami maydonlarni kamida 20 foizida ko'chatlab ekish, kamida 50 foizida lazer uskunasi yordamida yer tekislash tizimini joriy etish kamida 30 foizida sholini zamonaviy urug' seyalkalari orqali ekish, 2022-yilda yilda jami sholi maydonlarining kamida 40 foizida ko'chatlab ekish, kamida 70 foizida lazer uskunasi yordamida yer tekislash tizimini joriy etish, kamida 50 foizida sholini zamonaviy urug' seyalkalari orqali ekish to'g'risidagi takliflarga rozilik berilsin" deb belgilab qo'yilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, sholi eng qadimiy ekinlardan biri bo'lib, millionlab kishilarning moddiy turmushida muhim rol o'ynaydi. Sholi haqidagi ilk ma'lumotlar milotdan avvalgi 2800 yilga mansub xitoy qo'lyozmalarida uchraydi. Xindistonda milotdan 2 ming yil ilgari sholi ekilganligi xaqida ma'lumotlar bor. Binobarin, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, sholi Hindistondan Xitoy va Yaponiyaga, keyin G'arb tomonga Eron va Mesopotamiyaga tarqalgan. 689-701 yillarda sholi Misr, Italiya va Ispaniya mamlakatlariga ham kirib kela boshladi. Italiyada birinchi marta 1468-yilda sholi ekilgan. Sholi ekin sifatida tez orada Italiyadan Bolgariya, Rumuniya va Yugoslaviyaga tarqaldi. Yevropaning qolgan mamlakatlarida (Fransiya, Vengriya va boshqalar) sholi XX asrning ikkinchi yarmida ikkinchi jahon urushidan keyin yetishtirila boshlandi [1; 2;]. Sholi dunyodagi ko'plab davlatlarda bug'doydan keyingi asosiy ekin turi hisoblanadi [3;].



Rasm. Sholi navlari yetishtirilgan maydon.

Sholining tanlangan navlarini yetishtirish ishlari Andijon viloyati Paxtaobod tumanidagi — "Sarvarbek Holidayon" femer xo'jaligining ekin maydonlarida (rasm) olib borildi va sholi

o'simligining Tantana, Iskandar, Tarona, Lazer, Mustaqillik, Mustaqillik klaster, UzRos-713, Devzira (Qora qiltiriq) navlarida fenologik va biometrik ko'rsatkichlar o'rganildi.

Tajriba maydonida yetishtirilgan sholi navlari ustida olib borilgan kuzatishlarimizda sholi o'simligining rovak uzunligi, rovakdagi don soni, don og'irligi va xosildorlik ko'rsatkichlari bo'yicha o'rganishlar olib borildi. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan (jadval).

Jadval

Sholi navlarining ayrim biometrik ko'rsatkichlari

№	Nav nomi	Rovak uzunligi (sm)	1 dona rovakdagi donlar soni			1 tup o'simlik -dagi don og'irligi (gr)	100 dona don og'irligi (gr)	Xosildorlik (s/ga)
			Puch	To'la	Umumiy			
1	Tantana	20	17	209	226	7.1	3,283	37,91
2	Iskandar	23	12	256	268	9.04	3,311	32,62
3	Tarona	21	25	195	220	7.7	3,617	39,15
4	Lazer	22	26	108	134	4.22	3,358	51,06
5	Mustaqillik	21,5	20	165	185	7.3	4,089	63,83
6	Mustaqillik (Klaster)	20	10	130	140	5.1	4,166	23,58
7	Uz Ros-713	22	17	135	152	5.95	3,742	29,88
8	Devzira (Qora qiltiriq)	21	16	68	84	2.25	3,285	49,33

Rovak uzunliklari bo'yicha navlarning o'rtacha ko'rsatkichlari 20 sm dan 25 sm gacha ekanligi aniqlandi. Navlar orasida, Iskandar, Lazer, Mustaqillik, UzRos713 navlarning rovak uzunligi Tarona, Tantana, Mustaqillik klaster, Devzira navlariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Navlarning rovagidagi donlar soni puch va to'la guruhga ajratilib o'rganildi. To'la donlar soni Iskandar, Tantana, Tarona va Mustaqillik navlarida nisbatan ko'pligi kuzatildi.

Har bir navning 1 tup o'simlikdagi donlarining og'irligi o'lchab chiqildi va 2.25 gr dan 9.04 gr gacha ko'rsatkich namoyon qildi. Ushbu belgi bo'yicha Iskandar, Tantana, Tarona va Mustaqillik navlarida boshqa navlarga nisbatan yuqori natija aniqlandi.

Tajriba davomida har bir navning 100 dona don og'irligi hisoblab topildi. Mustaqillik(klaster) navida eng yuqori ko'rsatkich kuzatildi. Ushbu belgi bo'yicha eng past ko'rsatkich esa Tantana naviga to'g'ri keldi. Xosildorlik ko'rsatkichlari Mustaqillik, Lazer va Devzira navlarida yuqori, Mustaqillik (Klaster) hamda Uz Ros-713 navlarida esa o'rganilgan navlarga nisbatan past ekanligi aniqlandi. T.B.Kumeykoning [4;] sholi navlari xosildorligi va don sifatini tadqiq qilishga qaratilgan izlanishlarida Rossiya, Ukraina, markaziy osiyo davlatlari O'zbekiston va Qozog'istonda etishtiriladigan navlarning xosildorligi va don sifatini tahlil qildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘rganilgan 38 ta navlardan Fisht, Olimp, Kuraj va Avangard navlarida yetishtirish sharoitiga mos ravishda boshqa navlarga nisbatan yuqori natija aniqlangani kuzatildi. G.L.Zelenskiy va hamkasblarining [5;] “Olimp istiqbolli nav” nomli maqolasida tadqiq qilingan navlar orasida Olimp navi boshqa navlarga nisbatan xosildorligi yuqori ekanligi va noqulay omillarga chidamliligi ushbu navning genetik xususiyatlariga bog‘liq ekanligi ta’kidlangan. T.A.Sonde va boshqalar [6;] o‘simlikdagi suv rejimi hamda azot bilan ta‘minlanish darajasini o‘rganish orqali hosildorlikni o‘zgarishini tadqiq qilishgan va xuolsada o‘simlikning xosildorligi va boshqa belgilari azot bilan ta‘minlanganlik darajasiga qarab o‘zgarishi, bu esa eng avvalo navning individual xususiyatlariga bog‘liq ekanligi ta’kidlangan.

Biz olib borgan tadqiqot davomida ham o‘rganilgan belgilar bo‘yicha olingan natijalar yetishtirish sharoiti hamda navlarning individual xususiyatlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ldi. O‘rganilgan sholi navlarining hududga nisbatan munosabati ular namoyon qilgan ko‘rsatkichlari orqali o‘z aksini topadi. Olingan natijalar asosida to‘liqroq xulosaga kelish uchun tadqiqotlarni davom ettirish va biokimyoviy belgilar bilan bog‘liqligini o‘rganish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Atabayeva X.N va boshkalar-"O‘simlikshunoslik" Mehnat 2000-yil.
2. Atabayeva X.N - Donli ekinlarning biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. Toshkent. 2009.
3. Khush G.S. What it will take to feed five billion rice consumers by 2030 / G.S. Khush // Plant Mol. Biol. — 2005. —Vol. 59. — P. 1–6.
4. Кумейко Т.Б., Туманьян Н.Г., Ольховая К.К. Технологические признаки качества зерна сортов риса, допущенных к использованию на территории РФ, выращенных на Кубани./ <https://vniitti.ru/conf/conf2017/selekc.php>.
5. Зеленский Г. Л., Зеленский А. Г., Ромащенко Т. А., Стукалова В. В. Перспективный сорт риса олимп./ Рисоводство научно-производственный журнал. г. 2015. № 1 – 2. с. 26-27.
6. Т.А.Сонде, В.А.Масливец, д.с.-х.н., А.Я.Барчукова. Урожайность риса в зависимости от режима орошения и азотного питания/ Плодородие №3. г. 2007. с. 27-28.